

LOYIHALARNI QABUL QILISHGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Ariza

1 ta ishtirokchi 1 ta loyiha bilan ishtirok etishi mumkin;

Loyihalar tanlovini o'tkazish shartlari:

Tanlovda keng ko'lamdagi barcha yo'nalishdagi istiqbolli loyihalarni yaratish va amalga oshirishga qaratilgan arizalar qabul qilinadi.

Loyihalar quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

Loyihaning innovatsionligi – respublikada avval qo'llanilmagan yangi texnologiyalar va (yoki) jarayonni tashkillashtirish tamoyillaridan foydalanish darajasi, yangi xizmat turini yaratishni ko'zda tutganligi;

Loyihaning texnik jihatdan mukammalligi;

Loyihani moliyaviy rejalashtirish – loyiha moliyaviy ta'minotining rejalashtirilayotgan ishlarga muvofiqligi va harajatlar smetasining ishlab chiqilganligi;

Marketing rejasi – loyihani amalga oshirish strategiyasi, bozor hajmi, maqsadli auditoriya, aloqalar/sotuvlarning asosiy kanallari, raqobat muhiti va h.k;

Loyihani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar – ajratiladigan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanish, amalga oshiriladigan tadbirlarni bajarish sifati va muddatlari.

Loyihaning tijoratlashtirish holati hisobga olinganligi.

Tanlovda qatnashish uchun quyidagi hujjatlar komissiya kotibiga yuborilishi lozim:

loyiha muallifi tomonidan imzolangan ariza;

loyiha asosnomasi;

loyiha pasporti (imzo va muhr qo'yilgan holda);

xarajatlar smetasi;

loyiha taqdimoti;

taqdim etilgan loyihalar tanlov talablariga qat'iy rioya qilinganligi, loyiha materiallarining ishonchiligi va haqqoniyligi, ko'chirmachilikka (plagiat) yo'l qo'yilmaganligi, talablar asosida shakllantirilganligi, loyiha oldin moliyalashtirilmaganligi to'g'risida hmada institut bosqichida ishtrok etishiga fakultet kengashi tavsiya beradi.

Quyidagi hollarda taqdim etilgan loyihalar moliyalashtirishga tavsiya etilmasligi mumkin:

loyihaning maqsad va vazifalari yoritib berilmaganligi;

loyiha mazmuni innovatsion xususiyatga ega emasligi;

loyihada taqdim etilgan muammoning echimi mavjud emasligi;

loyiha xizmat ko'rsatish sohasiga oid bo'lmaganligi;

loyihaning avvalgi tanlovlarda g'olib bo'lganligi;

loyihaning tijoratlashtirish hisobga olinmagan holatda